

қолдирган. Баднафс, суллоҳ одамлар эса номигагина озгина қолдирган. Мазкур мақол ана шундай баднафс, еб тўймас, очкўз, суллоҳ одамлар бир сўз билан айтадиган бўлса, ўзидан бошқани ўйламайдиган ёмон одамларнинг устидан кулганда қўллаганлар.

Хулоса ўрнида шуни айтиш керакки, қорақалпоқ тилидаги мақолларнинг аксиологик, психологик, лингвوماданий, лингвопрагматик аспектларда тадқиқ этиш, уларнинг структур-семантик, бадиий-эстетик жиҳатларини ўрганиш юзасидан амалга оширилаётган тадқиқотлар долзарблигини сақлаб келмоқда

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Бердимурат улы Е. Ҳазирги қарақалпоқ тили. Лексикология. – Нөкис: Билим, 1994. – Б. 145-146.

2. Ешбаев Ж. Қарақалпоқ тилининг қысқаша фразеологиялық сөзлиги. – Нөкис: Қарақалпоқстан, 1985. – Б. 21-22.

3. Юсупова Б.Т. Қарақалпоқ тилининг фразеологиясы. Оқуў қолланба. – Ташкент: Тафаккур қаноти, 2014. – Б. 50-51.

4. Мажидова Р.У. Антропоцентриқ мақолларнинг аксиологик тадқиқи (ўзбек ва рус тиллари материаллари асосида). Филол. фан. докт. (DSc) ... дисс. автореф. – Фарғона, 2020. – С. 16.

5. Қарақалпоқ фольклоры. “Қарақалпоқстан” баспасы Нөкис-1978

“ОТА” ИНДИКАТОРЛИ НЕКРОТОПОНИМЛАРНИНГ ГРАММАТИК ХУСУСИЯТЛАРИ

**Yusupov San'at Shuxratovich,
NDPI o'qituvchisi**

Аннотатсия: О'zbek xalqi, ma'lumki, eng qadimgi turkiy urug' va qabilalardan o'sib chiqqan, demak, uning tili ham shu urug' va qabilalar tili negizida rivoj topgan. Qoraqalpog'istondagi nekrotoponimlarining leksik qatlamlarini o'rganishda, ularning tarkibi turli tillardan tashkil topganini bugungi maqolamiz orqali o'rganib chiqamiz.

Калит со'злар: o'zbek xalqi, indikatorlar, nekrotoponimlar, toponimlar, Qoraqalpog'iston, grammatika.

Toponimlar semantikasi faqat atalgan obyektga tegishli ma’lumotlarinigina bilishga yordam berib qolmasdan, shu bilan birga, atama beruvchining obyektga bo’lgan turli munosabatlarini ham ko’rsatadi. Atama mazmunidan xalqning ijtimoiy hayoti, tabiiy-geografik belgilar yoki jamiyatga tegishli voqealarni ham anglash mumkin. T.Januzaqov toponimikada semantik tasnif toponimlarning ma’nosini bilish, shu bilan birga, odamning ish-harakati, turmushi, ijtimoiy hayoti bilan bog’liq masalalarni aniqlash imkoniyatini berishini ta’kidlaydi [1: 175-176].

Mamlakatimizda inson qadri uning huquq va burchlari har tomonlama qadrlanadi va himoya qilinadi. Hattoki insoning xotirasi ulug’lanadi. Xalq xotirasi, madaniyati va ma’naviyatining tarkibiy qismi bo’lgan o’zbek tilshunosligida onomastik tadqiqotlar ko’lamining kengayib borishi, zamonaviy olim soha hamda uning rivojlanishi, takomillashishiga sabab bo’lmoqda. O’zbek tili toponimlari tizmidagi nekrotoponimlar salmoqli o’rin tutadi.

Qoraqalpog’iston Respublikasi hududidagi obyektlarning katta qismi antroponimlar, ya’ni kishi ismlari va etnonimlar, ya’ni urug’, qabila, millat nomlari bilan atalgan, bu hudud nekrotoponimlari uchun yana bir xarakterli jihatdir. Bunda mozar yoki qabristonlarning yaratilishiga asos bo’lgan yoki shu yerga dafn qilingan odamlar nomlariga e’zozlab *ota*, so’zi qo’shib atoqli nomlar hosil qilingan.

Ota leksemasi. Biror ish yoki harakatni boshlab bergan, unga asos solgan kishi, el-yurtga boshchilik qiluvchi, yoshi yoki mansabi ulug’ zot kabi ma’nolarni anglatadi. «Ota» sôzi aslida geografik nomlar tarkibida «aziz avliyo qadamjosi» degan ham ma’noni bildiradi. Qoraqalpog’iston hududida bunday nekrotoponimlarning bir qanchasini uchratamiz.

1.Antroponimlar asosida hosil qilingan nekrotoponimlar. “Hakim ota” qabristoni (Mo’ynoq t.), “Salmen ota” qabristoni (Nukus sh.), “Do’simbet ota” qabristoni (Nukus t.), “Yesimbet ota” qabristoni (Nuku s t.), “Turimbet ota” qabristoni (Kegeyli t.), “Jabbor ota” qabristoni (To’rtko’l t.), “Miskin ota” qabristoni (Taxtakopir t.), “Tasqin ota” qabristoni (Taxtakopir t.), “O’razimbet ota” qabristoni, (Nukus sh.), “Yerejep ota” qabristoni (Chimboy t.), “Badr ota” qabristoni (Beruniy t.), “Ubbi ota” qabristoni (Kegeyli t.), “Qo’chqor ota” qabristoni (To’rtko’l t.),

“Gidarboy ota” qabristoni (To‘rtko‘l t.), “G‘ayip ota” qabristoni (To‘rtko‘l t.), “Ismamat ota” qabristoni (To‘rtko‘l t.), “To‘qtamis ota” qabristoni (Kegeyli t.), “Do‘sim ota” qabristoni (Kegeyli t.), “Hakimquli ota” qabristoni (Kegeyli t.), “Annet ota qabristoni (Taxtako‘pir t.), “*Abdujalil ota*” qabristoni (Amudaryo t.), “*G‘oyib ota*” qabristoni (Amudaryo t.),

O‘zbek xalqi, ma’lumki, eng qadimgi turkiy urug‘ va qabilalardan o‘rib chiqqan, demak, uning tili ham shu urug‘ va qabilalar tili negizida rivoj topgan. Markaziy Osiyodagi turli tarixiy va ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, xususan, arablar, mo‘g‘ullar va ruslar istilosi, qardosh qozoq, qirg‘iz, turkman, tojik xalqlari bilan qo‘shnichilik munosabatlari ham o‘zbek tili taraqqiyotiga jiddiy ta’sir o‘tkazgan, bunda ayniqsa, turkiy-arab, o‘zbek-arab, o‘zbek-tojik, o‘zbek-qozoq, o‘zbek-qirg‘iz va o‘zbek-turkman bilingvizmi kabi omillarning roli katta bo‘lgan[2: 53]. Ana shu tarixiy jarayonlar nuqtayi nazaridan qaralganda, Qoraqalpog‘istondagi nekrotoponimlarining leksik qatlamlarini o‘rganishda, ularning tarkibi turli tillardan tashkil topganini ko‘rish mumkin.

O.T.Molchanova Tog‘li Oltoy toponimlarining grammatik va yasash xususiyatlarini tahlil qila turib, toponim yasashning leksik-semantik va leksik-sintaktik usullarini ko‘rsatib o‘tgan[3:104].

Nekrotoponimlar orasida umumturkiy, arab, fors-tojik, rus tili va rus tili orqali boshqa g‘arb tillardan o‘zlashgan nomlardan tashqari, ularning bo‘laklaridan biri yoki yasovchisi boshqa-boshqa tillar materiallari bo‘lgan nomlar ham anchagina qismni tashkil qiladi. Ularning tuzilishi quyidagi qatlamlardan iborat:

umumturkiy+umumturkiy: “To‘qtamis ota”, “O‘razimbet ota” , “Qo‘chqor ota”, “Tasqin ota”, “Yesimbet ota”, **fors-tojik+umumturkiy:** “Do‘simbet ota”, “Do‘sim ota” , “Annet ota”, “Gidarboy ota”, **arab+umumturkiy:** “Jabbor ota”, “Badr ota”, “Miskin ota”, “Hakim ota”, “Hakimquli ota”, “Maqsim ota”, “Ismamat ota”, «*Abdujalil ota*», “Salmen ota”, «*G‘oyib ota*», “Yerejep ota”, **qadimiy yahudiycha+umumturkiy:** “Dovud ota”.

Shuni ham qayd qilish kerakki, nekronimlar eng qadimgi davrlardan buyon qo‘llanilib kelayotgan va hozir ham amalda bo‘lgan nomlar o‘zbek tilida

umumturkiy, arab, fors-tojik tillari asosida hosil qilingan va ular qo‘llanishda davom qilib kelmoqda.

Bunday nekrotoponimlar o‘zbek tili qonun-qoidalariga fonetik va grammatik jihatdan o‘zlashib, o‘zbek tilining o‘z so‘zlari kabi taassurot qoldiradi. Ularning kelib chiqish ildizlarini bilish uchun maxsus etimologik izlanishlar olib borishga to‘g‘ri keladi. Xalq esa, bu so‘zlarni aniq tushunadi va ularni o‘zlarining til aloqalarida faol qo‘llaydi.

O‘zbek tilida nekrotoponim asosan ikki va undan ortiq so‘zning qo‘shilishi, birikishidan hosil bo‘lib, tilda qo‘shma so‘zning aniqlovchi, aniqlanmish munosabatidan yasalgan geografik nomlar keng tarqalgan lingvistik hodisa sanaladi. Bu, o‘z navbatida, boshqa turkiy tillar toponimikasiga ham xos xususiyat bo‘lib, nekrotoponimlarni grammatik tuzilishiga ko‘ra quyidagi guruhlariga asoslanib o‘rganish mumkin:

Ot+ot tipidagi nekrotoponimlar: *Badr ota, Dovud ota, Miskin ota, Ubbi ota, Do‘sim ota, Maqsim ota, Ismamat ota va b.*

ot+fe’l+sifat+ot: “Allaberdi Azizler ota”

Nekrotoponimlarning qancha so‘zdan tashkil topishi, bog‘lanish usullari, komponentlari orasidagi munosabatlar rang-barang bo‘lib, o‘zbek tilida so‘zlarning bog‘lanishi qonuniyatlarini to‘la aks ettirgan.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, hududdagi nekrotoponimlarning yasalishi hamda grammatik tuzilishi jihatidan o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Nekrotoponimlar, xususan, etnos nomi asosidagi joy nomlari ham til negizida vujudga keladi. Shuning uchun ham nomlarda shu hududda yashovchi xalq tilining o‘ziga xos xususiyatlari to‘la aks etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Орталық Қазақстан жер-су аттары. – Алматы: Ғылым, 1989. – Б.175-176.
2. Jamolxonov H.A. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent, 2004. 2-qism. – B. 53.